

Toshkent shahridan yangi arxeologik yodgorlik aniqlandi

Toshkent shahar, Yashnabod tuman, "Ibrat" MFY, Iftixor ko'chasida joylashgan "Changallik" qabristonida arxeologik kuzatuv-qidiruv ishlari olib borildi. Koordinatasi: 41°18'3.37"S; 69°24'55.07"V.



Chirchiq daryosining o'ng tomonida, daryo o'zanidan 220 metr uzoqlikdagi ushbu qabriston shimoli-sharqdan janubi-g'arbga cho'zilgan. Uning uzunligi 390, kengligining qisqa joylari - 75, eng keng joyi esa 125 metrgachani tashkil qiladi. Bu qabristonning o'rtasida yon-atroflardagi tekislikdan balandligi 2 metr, kattaligi 0.44 gektar keladigan to'rtburchak shakldagi tepalik ajralib turadi. Bu tepalik ko'zdan kechirilganda uning arxeologik yodgorlik o'rni ekanligi aniq bo'ldi. Tepalik sirtidan 9-10-asrlarga oid bo'lgan sirlanmagan, ammo qora bo'yoq oqizib va tirnab bezak berilgan sopol idish namunalari, 20x20x3-35 santimetr hajmdagi pishgan g'ishtlar topildi.

O'rganilgan tepalik eskidan qabristonga aylantirilgan bo'lib, uning butun maydonini kichik-kichik do'nglik va chuqurchalar egallagan. Bu notekisliklarni ko'zdan kechirish jarayonida ulardan birining ustiga marmartoshdan uzun qilib yo'nib, yoniga arab harflarida yozuvlar o'yib yozilgan yodgorlik - qabrtoshi qo'yilganligiga duch kelindi. Bu qabr tosh undagi yozuvlarga qaraganda 1317-yili vafot etgan shaxsga atab qo'yilgan.



Bu qabr toshdan tashqari yana ikki dona shunga o'xshash qabrtoshlar qabristonning alohida joyga olib borib qo'yilgan ekan. Ulardan biriga 1295, ikkinchisiga 1313 soni yozilgan. Qabr toshlardagi yillar hijriy-qamariy yil hisobida yozilgan bo'lib, ular milodiy 19-asrning 4-choragiga to'g'ri keladi.



Bulardan tashqari, qabriston qorovulining qabrlarni suvash uchun keltirilgan tuproq orasidan chiqqan va ancha paytdan buyon asrab-avaylab saqlab kelinayotgan ko'zacha ham davlat muzeylariga topshirish uchun olindi.

Yuqoridagilar "Changallik" qabristonining arxeologik yodgorlik ekanligini, uning 9-10-asrlarda qishloq o'rni bo'lganligini, 19-asrdan boshlab qabriston vazifasini o'tab kelayotganligini ko'rsatmoqda.

Dilmurod Normurodov, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori.